

**RAQAMLI MARKETINGNING KICHIK VA O`RTA BIZNES
BOSHQARUVIDA TADBIQ ETILISHINI TAKOMILLASHTIRISH**

Zilola Nematova

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti,
biznes boshqarish yo'nalishi 1- bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: Zamira Ashurova*

Annotatsiya: Raqamli marketing raqamli iqtisodiyotning muhim bir qismi desak mubolag`a bo`lmaydi. Ushbu maqolada kichik va o`rta biznes boshqaruvida raqamli marketingni tadbiq etishning shart-sharoitlari muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: raqamli marketing, raqamli iqtisodiyot, kichik biznes, to'rtinchchi sanoat inqilobi, kichik biznes boshqaruvi, raqamli biznes iqtisodiyoti.

KIRISH

Bugungi kunda to'rtinchchi sanoat inqilobi davrini boshlagan rivojlangan mamlakatlarda ham raqamli iqtisodiyot avvalo kichik va o`rta biznesda namoyon bo'lishi bilan ahamiyatli. Kichik va o`rta biznesning o'zi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishining asosiy drayverladan biri ekanligili bilan diqqatga sazovordir. Mazkur holat ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar kichik va o`rta biznesini, taraqqiyotning an'anaviy modelidan innovatsion modeliga o'tishi lozimligini taqozo etadi.

Kichik va o`rta biznes boshqaruvini takomillashtirishda raqamli iqtisodiyot yutuqlarini joriy qilinishi o'z navbatida dastlab bu tushunchaning mohiyatini izchil tahlil qilish bilan bog'liq. Raqamli iqtisodiyot, uning o'tmishi, bugungi holati va kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini aniqlash, biz tanlagan mavzudagi ilmiy-nazariy izlanishlarimizning nechog'lik dolzarb ekanlini anglatadi. Raqamli iqtisodiyotning mohiyatini, ko'llamini, uning rivojlanish bosqichlarini aniqlashda avvalo bu tushuncha to'g'risida aniq tasavvur va nazariy bilimlarning bo'lishi zaruriyatini keltirib chiqaradi [3].

ADABIYOTLAR SHARHI

1990-yillarda jahon iqtisodiyotdagi sifat o'zgarishlari hali ham, raqamli iqtisodiyotning asosi bo'lgan internetning paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan bog'liq holda kechmoqda. Keyinchalik 2000-2020 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) rivojlanishi iqtisodiy tizimdag'i o'zgarishlar uchun shart- sharoitlarni yaratdi. Bu jarayon raqamli sensorlarning tobora ko'payib borayotgan qurilmalariga (Internet of things) kiritilishi, yangi shaxsiy qurilmalar (mobil telefonlar, smartfonlar, planshetlar, noutbuklar, 3D

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

bosib chiqarish qurilmalari), yangi raqamli modellarni yaratish (bulutli ishlov berish, raqamli platformalar, raqamli xizmatlar), katta ma'lumotlar (Big date) texnologiyasidan foydalangan holda ma'lumotlar massivlaridan foydalanishning o'sib borayotgan intensivligi, ma'lumotlarni tahlil qilishning yangi usullari va qarorlar qabul qilish algoritmlari, shuningdek, yangi avtomatlashtirish va robotlashtirish jarayonlari bilan bosqichma- bosqich rivojlandi. "Axborot texnologiyalari, robototexnika, mikroelektronika, telekommunikatsiya kabi sohalardagi inqilobiy siljishlar nisbatan yangi va muhim hodisa-raqamli iqtisodiyotni keltirib chiqardi".

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ushbu texnologiyalar jamiyatning barcha jahbalariga kirib borishi natijasida "ishlab chiqarishda mehnat samaradorligining oshishi, biznesning raqobatbardoshligining o'sishi, ishlab chiqarishdagi xarajatlarning kamayishi, yangi ish o'rinalining yaratilishi, yangi zamonaviy kasblarning paydo bo'lishi" ga olib keldi. Ammo, shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, raqamli iqtisodiyotning ko'lami keng tushunchadir va u global miqyosda notekis taqsimlangan. Raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi AQShda 10,9, Xitoyda 10, Hindistonda 5,5 foizni tashkil etadi. O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 2 foizdan ham oshmaydi [4].

Hozirgi kunda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning tarkibiy qismlariga elektron tijorat, "Elektron hukumat" tizimi, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, xizmat ko'rsatish sohalarida "aqlii" (smart) texnologiyalarni joriy etish, "Aqlii shahar", "Xavfsiz shahar"ni yaratish, shuningdek "Buyumlar Interneti" dan keng foydalanish va boshqalar kiradi. Lekin shuni aytish lozim-ki, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot "O'zbekiston potensiali"ga nisbatan ancha sust rivojlanmoqda. Mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda infrotuzilmalarning roli qoniqarli darajada bo'lsada, kerakli resurs va imkoniyatlar mavjud. Shu o'rinda mamlakatimiz miqyosida raqamli iqtisodiyotni rivojlanishida to'siq bo'layotgan ayrim jihatlarni ochib berishni maqsad qilib qo'yidik. Bular, internet tezligining pastligi, axborot texnologiyalari sohasida qonunchilikning zamondan orqada qolganligi, fuqarolarda kompyuter savodxonligining o'ta pastligi, axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislarining yetishmasligi yoki ularni boshqa mamlakatlarga ketib qolishi, axborot madaniyatining pastligi, axborot texnologiyalari xavfsizligi yaxshi emasligi, boshqaruv organlarida sohani tushunadigan mutaxassislarining kamligi, ilm-fan va ayniqsa aniq fanlarning rivojlanishi sustligi kabi yana bir qator muammolar bevosita iqtisodiyotning nafaqat kichik va o'rta biznes tarmog'i, qolaversa, barcha tarmoqlarini raqamlashtirishda qiyindchiliklarga sabab bo'lmoqda. Raqamli iqtisodiyotning geografik yo'nalishi dastlab rivojlangan mamlakatlarga qaratilgan

bo'lsa, uning oqibatlari global miqyosga ega bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlarga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday qilib, raqamli iqtisodiyotni tahlil qilishda uning rivojlanish o'Ichoviga jiddiy e'tibor qaratish zarur. Yuqorida raqamli iqtisodiyotning O'zbekiston sharoitida qanday tarkibiy qismlardan tashkil topganligi va qay darajada ekanligini aniqlagan bo'lsak, uning rivojlangan mamlakatlarda qanday tavsiflanishinazariy tahlil qilmoqchimiz (1 - jadval) [5].

Ilmiy-nazariy izlanishlar tahlili shundan dalolat berdiki, rivojlangan mamlakatlar amaliyotida raqamli iqtisodiyot kategoriyasiga berilgan ta’riflarning asosiy qismi innovatsion texnologiyalar va biznes bilan o’zaro bog’langan.

1-jadval

Rivojlanish bosqichlari bo'yicha raqamli iqtisodiyot kategoriyasiga berilgan ta'riflar tahlili

| Manba | Ta’rif | Nazariy tahlil |
|---|---|--|
| Tapscott, 1996: The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence McGraw-Hill. | Muallif raqamli iqtisodiyot tushunchasini ta’riflamaydi uning o’rnigatarmoqlii iqtisodiyot” atamasi birinchi andrazvetka davri (Age of Networked Intelligence) tushunchasini unda raqamli iqtisodiyot of Networked Intelligence texnologiyalari orqali odamlarning yangi bosqichi sifatida o’zaro ta’sirida aql, bilim vabiznesni yangi turlarining va ijodkorlikni birlashib ijtimoiy kapital va farovonlikka erishish”. | Mazkur nashrda “raqamli tarmoq iqtisodiyot rivojlani-shining qolaydi. Uning mohiyati “tarmoq iqtisodiyot rivojlani-shining yangi texnologiyalar o’rtasidagi munosa-batni qanday izohlashi va bir komponent ikkinchisining paydo bo’lishiga olib kelishiga etibor qaratiladi. |
| Brynjolfsson, Kahin, 2000b: Understanding the Digital Economy: Data, Tools, and Research/ Brynjolfsson, B. Kahn (eds). Cambridge: | “Raqamli iqtisodiyot bu kompyuter texnologiyalaridan iqtisodiyotni turli nuqtai foydalangan holda axborotni nazaridan ko’rib chiqish raqamlashtirish iqtisodiyotning tugallanmagaga bozori, tashkiliy Data, iqtisodiyotning Tools, and tarmoqlarining transformatsiyasidir”. tuzilmadagi o’zgarish-lar | Muallif raqamli iqtisodiyotni turli nuqtai hisobiga zurligini ta’kidlaydi-lar. barcha Ya’ni bular: makroiqtisodiyot, raqobat, mehnat tuzilmadagi o’zgarish-lar kabilari. |

**"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION:
WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"**

| | | |
|---|--|--|
| MITPress. | | |
| Mesenbourg, 2001: Measuring the Digital Economy (US Bureau of the Census) Suitland, MD. | Muallif "raqamli iqtisodiyot" tushunchasi uchta komponentdan iborat ekanligini ta'kidlaydi: 1) qanday elektron operatsiyalar va elektron qaratadi. Muallif elektron biznes va elektron tijorat fenomenini qanday o'lchashga e'tibor qoraydi; 2) elektron biznes - korxona kompyuter tarmoqlari yordamida amalga oshiradigan har qanday operatsiya; 3) elektron tijorat, ya'ni kompyuter tarmoqlari yordamida sotilgan tovarlar va xizmatlar hajmi". | Muallif elektron biznes va elektron tijorat fenomenini qanday o'lchashga e'tibor qoraydi. |
| Knickrehm M., Berthon B., Daugherty P. (2016) Digital Disruption: The Growth Multiplier. Dublin: Accenture. | "Raqamli iqtisodiyot turli resurslar tomonidan asosiy elementlarini eng yaratilgan jami ishlab chiqarishning yaxshi tarzda qo'llash orqali bir qismidir. Ushbu resurslarga makroiqtisodiy mikro va makroiqtisodiy o'sishni uskunalar (apparat, dasturiyrag'batlantirish chorala-rini ta'minot va aloqa) va ishlab ko'rib chiqadi. | Muallif raqamli iqtisodiyot turli resurslar tomonidan asosiy elementlarini eng yaratilgan jami ishlab chiqarishning yaxshi tarzda qo'llash orqali bir qismidir. Ushbu resurslarga makroiqtisodiy mikro va makroiqtisodiy o'sishni uskunalar (apparat, dasturiyrag'batlantirish chorala-rini ta'minot va aloqa) va ishlab ko'rib chiqadi. |

Keltirilgan ta'riflar raqamli iqtisodiyot kategoriyasiga berilgan ta'rifning ikkita eng muhim tarkibiy qismini qayd etgan. Masalan, Brynjolfsson va Kahin o'z ishlarida raqamli iqtisodiyot iqtisodiyotning barcha tarmoqlarining

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

tugallanmagan transformatsiyasi sifatida ta'riflashsa, Mesenbourg va Elmasry T. tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyot biznesni raqamlashtirish bilan shakllantirilishining bir nechta komponentlarini tavsiflashgan. Tahlil natijalaridan ko'rrib turibdiki, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish bevosita ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirish va transformatsiyalash asosida amalga oshiriladi. Bu esa rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko'ra, albatta biznesning dastlabki bosqichi bo'lган kichik va o'rta biznesni transformatsiyalash bilan boshlanadi. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan ta'rifning negizida ham raqamli iqtisodiyotning tub mohiyatida biznesni raqamlashtirish ko'zlangan bo'lib, sanoati rivojlangan mamlakatlar tadqiqotchi olimlari ishlab chiqgan ta'riflarning majmuasi sifatida talqin etilgan.

Xorij amaliyotida iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlaridan ma'lumki, raqamli iqtisodiyotning biznesga ta'siri yoki aksincha biznesning raqamli iqtisodiyotga ta'siri natijasida iste'molchilarining iqtisodiy tizimga ongli ravishdagi munosabati iqtisodiyotning yangi turdag'i o'ziga xos nomlar bilan talqin etilishi orqali namoyon bo'ldi, ya'ni: "talabga asoslangan iqtisodiyot (*on-demand economy*), mobil iqtisodiyot (*mobile economy*), *birgalikdagi iste'mol iqtisodiyoti* (*sharing economy*), *hamkorlik iqtisodiyoti*, *vikonomika* (*wikinomics*), *yuqori texnologiyali uzatish iqtisodiyoti* (*hi-tech gift economy*)", "*platforma iqtisodiyoti* (*rplatform yeconomy*), *erkin daromadar iqtisodiyoti* («*giganomika*», *gig-economy*)" kabilar raqamli texnologiyalar paydo bo'lishidan oldin mavjud bo'lмаган iqtisodiy faoliyatning mutlaqo yangi bo'lган turlari hisoblanadi. Bunga aniq misollar sifatida Google, Facebook, Amazon, eBay, Alibaba, Uber va Airbnb singari platforma kompaniyalarini keltirish o'rini. Biz ushbu kompaniyalarni raqamli iqtisoditning bir qismi deb hisoblaymiz, chunki ular innovatsion raqamli texnologiyalar va raqamli biznes modellariga asoslangan raqamli platformalardir.

XULOSA VA MUNOZARA

Demak, qilgan tahlilimiz natijasi raqamli iqtisodiyotning asosiy qismi biznesning raqamlashtirilishi bilan rivojlanar ekan, iqtisodiyotning yangi turdag'i nomlanishini taqozo etdmoqda. Ya'ni iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlari bo'yicha unga mos holda uning nomlanishi ham yuqorida turlicha talqin etilmoqda. Biz esa biznesni raqamli iqtisodiyotning ajralmas qismi sifatida ta'riflab, raqamli iqtisodiyotni shakllantirishda asosiy rolni kichik va o'rta biznesni raqamlashtirish bilan bog'liq degan xulosaga keldik.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Birlashgan millatlar tashkilotining savdo va rivojlanish konferensiyasi 04.09.2019 y.
2. Xo'jamqulov. Oliy majlis Qonunchilik palatsi deputati. "O'zbekiston mintaqaviy IT-markazga aylanishi lozim". Xalq so'zi 2022 yil 20 aprel, №81 (8143).
3. Содикова, А. Х. (2019). Признаки процесса обучения. УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА, 49.
4. Содикова, А. (2023). New Uzbekistan-The Value of Membership in the Continuous Education System. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 31(31).
5. Содикова, А. (2023). Шахснинг касбий фаолиятини ўрганишга психологияк ёндашув. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 31(31).
6. Sodikova, A. N. (2023, March). DIDACTIC OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF SPECIAL COMPETENCIES IN STUDENTS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE " INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION" (Vol. 2, No. 4, pp. 93-99).
7. Muratova, G. R., & Komilova, M. (2022). PARALIMPIYA SPORTI IMKONIYATLARI CHEKLANGAN SHAHSLARNI IJTIMOIYLASHTIRISH USULI SIFATIDA. *Oriental Art and Culture*, 3(2), 697-701.
8. Muratova, G. R. (2021). To the problems of self-assessment of children with disabilities through adaptive physical education and sport. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 455-458.
9. Муратова, Г. Р. (2020). ВОПРОСЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ В СФЕРЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА В ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, (SI).
10. Asqarova, S. I. (2020). Terminology Of The Direction Of Language Contacts In Modern Linguistics. *Scientific Bulletin Of Namangan State University*, 2(11), 234-239.
11. Сайдова, Н. О., & Йигиталиева, М. Ш. (2022). АҲБОРОТ-КОММУНИКАТИВ ТАЪЛИМ МУҲИТИНИНГ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ. *Miasto Przyszlosci*, 28, 395-398.
12. Сайдова, Н. О. (2022, November). БОШЛАНГИЧ СИНФ ӮҚИТУВЧИСИНИНГ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 10, pp. 260-263).

**"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION:
WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"**

13. Сайдова, Н. О. (2022, September). Бұлажак үқитувчиларнинг компетентлигини шакллантириш муаммолари. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE " THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 1, No. 1, pp. 147-150).*
14. Karimova, S. B. (2022). BELIEFS ABOUT TEACHING GRAMMAR. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 2), 123-127.

